

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

1 (4) 2024

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 1(4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор.

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети Тарих факултети доценти

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳақимов Назар Ҳақимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гўлнора Абдукаҳхаровна –
т

Гурдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;
Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Электрон журнал **1368-сонли гувоҳнома** билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEM S TEAM” масъулияти чекланган жамияти.

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Mustafoyev Abubakr Muhiddin o'g'li</i> XIII VA XIV-ASRDA YASHAB IJOD ETGAN BUXORO FAQIHLARI VA ULARNING ASARLARI TAVSIFI (1-qism).....	9-14
<i>Mirzayev Avazbek</i> ANDIJON TAJRIBA PAXTA DALASI TARIXINING ARXIV HUJJATLARIDA YORITILISHI	15-21
<i>Алиджанова Лазизахон Аббасовна</i> ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ДИН ВА ТАБОБАТ МАСАЛАСИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЁНДАШУВЛАР	22-28
<i>Sobirov Sardorbek Abdusattor o'g'li</i> XIX-ASRNING IKKINCHI YARMIDA SHARQIY TURKISTONDA ROSSIYA VA BRITANIYA IMPERIYALARI RAQOBATI	29-34
<i>Джалолов Бахром Джамолович</i> СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА “ПАХТАЯККАҲОКИМЛИГИ” СИЁСАТИ ВА БОЛАЛАРГА КЎРСАТГАН ТАЪСИРИ	35-39
<i>Махматкулова Нозикой Чориёевна</i> О'ЗБЕКИСТОНДА XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA IRRIGATSIYA-MELIORATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEKANIZATSIYALASH SOHASIDA YURITILGAN KADRLAR SIYOSATI	40-45
<i>Ochilov Farhod</i> O'ZBЕKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING AHOLINI IJTIMOIIY NIHOYA QILISHDAGI FAOLIYATI	46-52
<i>Ҳамроева Нодира Нормуродовна</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ЕР-СУВ ИСЛОҲОТИ ЖАРАЁНИДА ИЖТИМОИЙ МУОММОЛАР	53-58
<i>Мамажонов Алишер, Алишеров Абдувоҳид Алишерович</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРНИНГ БАРПО ЭТИЛИШИ ТАРИХИ	59-65
<i>Tursunov Ravshan Normuratovich</i> XIX-ASRNING IKKINCHI YARMI – XX-ASR BOSHIDA TURKISTON O'LKASIDA SODIR BOLGAN ZILZILALAR TARIXIGA BIR NAZAR	66-71

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Умурзакова Мўътабархон Нодир қизи</i> СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ СОҲАСИНИ ТИББИЙ СУҒУРТА АСОСИДА МОЛИЯЛАШТИРИШ МОДЕЛИ	72-78
<i>Ro'zmetov Bahodir Shomurotovich</i> TURIZMDA XIZMATLAR MOHIYATI VA UNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDAGI O'RNI	79-90
<i>Shanazarova Nilufar Baratovna</i> MILLIY IQTISODIYOTDA TRANSPORTNING AHAMIYATI	91-99
<i>Рахимов Ойбек Бахтиёрович</i> АВТОТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ МОХИЯТИ	100-109

<i>Болтаев Нурали Шираматович</i> АГРАР ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КАДРЛАР САЛОҲИЯТИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ АСОСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ	110-118
<i>Эрханов Муҳаммаджон Абсайитович</i> ДАВЛАТНИНГ ХАЛҚАРО РЕЙТИНГ ВА ИНДЕКСЛАРДАГИ ЎРНИНИ ЯХШИЛАШДА ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИНГ ЎРНИ	119-124
<i>Жураева Гульзира</i> АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛЕ И УСЛУГАХ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ	125-130
<i>Akbarov Husan O'zbekxonovich</i> BOG'DORCHILIKDA TEXNIK SAMARADORLIKNI TAHLIL ETISHNING PARAMETRIK VA NOPARAMETRIK USULLARI	131-136
<i>Yaqubova Yulduz Raimovna</i> KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ISHLAB CHIQRISHINI SAMARALI AMALGA OSHIRISH KO'RSATKICHLARI	137-147
<i>Рахимбаев Акмал Азатбоевич</i> ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДЛАРИНИ САНОАТГА ИХТИСОСЛАШУВ ДАРАЖАСИНИ ТАРМОҚЛАР БЎЙИЧА АНИҚЛАШ	148-157
<i>Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</i> SAMARALI SOLIQ SIYOSATI-INNOVATSION RIVOJLANISHGA O'TISHNING ASOSIY SHARTI	158-170
09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Наврўзова Гулчеҳра Нигматовна</i> БАҲОУДДИН НАҚШБАНД РУБОЙЛАРИНИ ШАРҲЛАГАН АЛЛОМА	171-175
<i>Шарифходжаева Наргиза Абдуманноновна</i> ФИЛОСОФИЯ СВОБОДЫ, РАВЕНСТВА И СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ МУХАММАДА АЛИ ДЖИННЫ	176-181
<i>Nasimov Azizbek Azimovich</i> АХВОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТ РИВОЖЛАНИШИДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ FALSAFIY МОНИЯТИ	182-186
<i>Norkulov Olim Nasimovich</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA MIGRATSIYANING AHOLI AXLOQIY QADRIYATLARIGA TA'SIRI	187-191
<i>Хасанов Бобуржон Хакимович</i> ОММАВИЙ НОРОЗИЛИКЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	192-197
<i>Quratboyev Alisher Maxsudovich</i> YANGI O'ZBEKISTON VA IJTIMOY DAVLATCHILIK	198-204
<i>Raxmonberdiyev Islombek Ilxom o'gli</i> SIVILIZATSIYALAR TARAQQIYOTIDA MADANIYATLAR TO'QNASHUVINING IJTIMOY- FALSAFIY AHAMIYATI (Samyuel F. Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" asari asosida).....	205-214

<i>Shukurov Orif Jumaboyevich</i> JAMIYATDA YOSHLARNING IJTIMOYIY AKTIVLIGINI OSHIRISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	215-219
10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Akhmedov Oybek Saporbayevich</i> THEORETICAL OVERVIEW OF THE DEFINITION “TERM” AND “TERMINOLOGY” IN LINGUISTIC SURVEYS	220-227
<i>Ravshanova Gulrukhbegim Qaxramon qizi</i> ЯНГИ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҲАЖВНАВИСЛИК АНЪАНАСИ	228-232
<i>Ortiqova Mavluda Nurmahammadovna</i> AQOID ILMIDA KAROMAT TUSHUNCHASI VA BADIY ADABIYOTDAGI TALQINI	233-237
<i>Uliqova Mavludaxon</i> “QON-QARINDOSH” KONSEPTINI FONETIK-FONOLOGIK SATHDA NAMOYON BO’LISHI	238-243
<i>Rahmonov Asror ibni Nusrat</i> HERMANN HESSE HAYOTI, IJODI VA ADABIYOTDAGI O’RNI	244-252
<i>Raxmatova Dilafruz Nusratilloevna</i> SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI	253-258
<i>Djuraeva Muxlisa Shadiyarovna</i> INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDA OILAVIY NUTQDAGI IJTIMOYIY-MADANIY FARQLAR	259-265
<i>Vokhidova Tamanno Saidjonovna</i> MEDIALINGUISTICS AS A MODERN SCIENTIFIC DIRECTION	266-271
<i>Djurayeva Shahlo G’ulom qizi, Sattarova Ismigul Baxtiyorovna</i> INGLIZ ADABIYOTLARIDA KIRITMA BIRLIKLARINING BADIY SEMANTIKASI	272-277
12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Uzakova Go’zal Sharipovna</i> O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA “YASHIL QURILISH”NI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY MASALALARI	278-286
<i>Murzaev Shuxrat Shavkatovich</i> СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ КАТЕГОРИИ ПРАВОПОНИМАНИЯ	287-293
<i>Qosimov Botirjon Ma’rufjon o’g’li</i> SUD HOKIMIYATINING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI: KONSTITUTSIYAVIY TAHLIL	294-301
<i>Islombek Abdikhakimov</i> QUANTUM COMPUTING AND LEGAL READINESS FOR E-GOVERNMENT SERVICES	302-309
<i>Hodjaeva Shirinxon Olimxon kizi</i> ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СУДЕБНОЙ СИСТЕМЕ	310-315
<i>Jiyenbayev Bahadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA’MINLASHNING AYRIM XUSUSIYATLARI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA	316-322
<i>Aliшаев Собир Турсунбоевич</i> СУД ҲУКМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА РАҚАМЛАШТИРИШ ИМКОНИАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	323-329

Адембаев Аралбай Куралбаевич

АЙРИМ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ЖИНОЯТ ҚОНУНЛАРИДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИ
ҲАРАКАТИ ЁКИ УЛАРДАН ФЙДАЛАНИШ ХАВФСИЗЛИГИ ҚОЙДАЛАРИНИ БУЗИШ УЧУН
ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ 330-339

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Матенов Рашид Бекимбетович, Анатолий Викторович Тряпельников

ЮРИДИЧЕСКИЙ ТЕКСТ КАК ОБЪЕКТ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ-
ЮРИСТОВ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖОТРАСЛЕВЫЕ
ПЕРСПЕКТИВЫ 340-346

Хаййева Ирода Адамбаевна

TALABALARGA ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATI VA FOLKLOR MUNOSABATINI
TUSHUNTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI 347-351

Ayatov Raximberdi Ibragimovich

XORIJIIY TILDA TURIZM VA MEHMONXONA BIZNESI SOHASIGA OID SO'Z VA IBORALARNI
O'QITISHDA TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH 352-357

Saidova Dilobar Ikrambayevna

MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOIIY XULQ-ATVORNI
RIVOJLANTIRISH ZARURATI 358-361

Eshqobilov Elmurod Menglimurod o'g'li

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING
KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI 362-367

Ҳамдамова Шахноза Юсупалиевна

ТИББИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИОН ЁНДАДАШУВ АСОСИДА
ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ЛАЁҚАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ 368-375

Janonova Sitora Berdinazarovna

ТА'ЛИМ ВА ТАРБИЯ ТАРАҚҚИЙОТИДА КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНСИЯ
TUSHUNCHASINING O'RNI 376-381

Турсунбоева Мухлиса Анвар қизи

ТАБИИЙ ФАНЛАР ФАКУЛЬТЕТЛАРИДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ КАСБГА
ЙЎНАЛТИРИЛГАНЛИК АСОСИДА ЎҚИТИШ ПЕДАГОГИК МУАММО
СИФАТИДА 382-387

Bakhadirova Shoxina Nadir kizi

INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHQ VA
TOPSHIRIQLARNI ONLINE KO'RINISHDA O'QITISH 388-392

Qurbonova O'lmasoy Usmonovna, Niyozova Shohista Nusratilloevna

OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI 393-397

Xudayberdiyeva Mahliyo Zayniddin qizi

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY SIFATLARINI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA INNOVATSION
METODLARI 398-403

Shanazarova Nilufar Baratovna
TDTTrU, "Transport iqtisodiyoti" kafedrasida katta o'qituvchisi
awakamalaka@gmail.com

MILLIY IQTISODIYOTDA TRANSPORTNING AHAMIYATI

Annotatsiya: Maqolada mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida transport tarmog'ining ahamiyati atroflicha yoritib berilgan. Shuningdek, transportning iqtisodiyotga ta'sir qiluvchi bir qancha omillari o'rganilgan. Transport infratuzilmasini boshqarish va tashuvlarni amalga oshirish bo'yicha xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: transport, milliy iqtisodiyot, transport tizimi, transport infratuzilmasi, davlat-xususiy sheriklik, transport faoliyati.

Shanazarova Nilufar Baratovna
TSTrU, senior teacher of the "Transport economy" department

IMPORTANCE OF TRANSPORT IN THE NATIONAL ECONOMY

Abstract. The importance of the transport network in the development of the country's economy is detailed in the article. Also, several factors affecting the economy of transport have been studied. Conclusions on the management of the transport infrastructure and the implementation of transport were formed.

Key words: transport, national economy, transport system, transport infrastructure, public-private partnership, transport activities.

Шаназарова Нилуфар Баратовна
ТГТрУ, старший преподаватель кафедры «Экономика транспорта»

ВАЖНОСТЬ ТРАНСПОРТА В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ

Аннотация. В статье подробно рассмотрено значение транспортной сети в развитии экономики страны. Также изучен ряд факторов, влияющих на экономику транспорта. Сформированы выводы по управлению транспортной инфраструктурой и осуществлению перевозок.

Ключевые слова: транспорт, национальная экономика, транспортная система, транспортная инфраструктура, государственно-частное партнерство, транспортная деятельность.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I1Y2024N12>

Kirish. Transport, shubhasiz, milliy iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega, transport infratuzilmasining sifati uning raqobatbardoshligining asosiy omillaridan biri, aholining harakatchanligining o'sishi esa ijtimoiy rivojlanishning eng muhim ko'rsatkichlaridan biridir. O'zbekiston xalqaro dengiz yo'llaridan ikki yoki undan ortiq davlat hududi orqali chiqa oladigan ikki davlatdan biri (ikkinchisi Lixtenshteyn) sanaladi. Shuning uchun eksport va import yuklarini tashish xarajatlari hal qiluvchi omilga aylanadi.

Transport – iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U jamiyatning moddiy bazasi hisoblanadi, mehnatning taqsimlanishi, xalqaro ishlab chiqarish va savdodagi birlik va mutanosiblik darajasini muvofiqlashtiradi. Texnika va transport zamonaviy texnologiyalar rivojlanishida tezlik bilan kurashish rivojlanishining asosiy yoʻnalishini belgilaydi. Insonlar hayotidagi moddiy va maʼnaviy darajani koʻtarishda keng qamrovli va qiyin muammolarni aynan transport tizimi yechadi. Transport – jamiyatning ishlab chiqarish kuchi vositasidir, bu kuchsiz jamiyatning rivojlanishi va mavjud boʻlishi mumkin emas. Transport tizimining umumiy strukturasi kapital sarmoyaning ahamiyatli hajmini aloqa yoʻllari egallaydi. Harakat tarkibining ishlash samarasi aloqa yoʻllarining holatiga chambarchas bogʻliqdir.

Yangi Oʻzbekistonning 2022 — 2026 yillarga moʻljallangan taraqqiyot strategiyasini **6-maqjadi barcha transport turlarini uzviy bogʻlagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, yirik shaharlar oʻrtasida kunlik transport qatnovlari asosida manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratishdan iborat. Unga koʻra, Toshkent shahri va hududlarda jamoat transporti tizimini takomillashtirish va uning infratuzilmasini rivojlantirish; shaharlararo va shahar atrofi temir yoʻl qatnovlari jozibadorligini oshirish masalalari bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish, temir yoʻl infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish va avtomobil yoʻllari tarmogʻini jadal rivojlantirish va transport sohasida tashqi savdo uchun “yashil koridorlar” hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish va tranzit yuk hajmini 15 million tonnaga yetkazish shular jumlasidandir [1].**

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Transport tarmogʻining mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etishi borasida tadqiqot olib borgan olimlarning fikriga koʻra, mazkur sohadagi baʼzi koʻrsatkichlar mamlakat YaIM oʻsish surʼatlariga bevosita bogʻliq. Iqtisodchi olimlarning taʼkidlashicha, mamlakat iqtisodiyoti tadbirkorlik, texnologik oʻzgarishlar, bilimlar, inson kapitali, mehnat resurslari, taʼlim va ilmiy tadqiqotlarga investitsiyalar, xorijiy kapitalning kirib kelishi kabi endogen va ekzogen omillar bilan rivojlanadi [3], [4], [5]. Amerikalik mutaxassis Stiven Frederik Starr transport kompleksi kategoriyasiga quyidagicha taʼrif bergan: “Transport kompleksi- yoʻlovchilar va yuklarni tashishga boʻlgan ehtiyojni qondirish uchun iqtisodiyot tarmoqlari yigʻindisi” [6]. Jumladan, rossiyalik olim G.A.Gols [7] transport tizimining rivojlanish qonuniyatlarini oʻrganib, uning taraqqiyoti, iqtisodiyotning boshqa sohalari uchun ham rivojlanishning muhim omili ekanini dalillar bilan isbotlagan. “Transport” tushunchasi harakat tarkibi, yoʻllar, terminallar va boshqalar kabi elementlarni, muayyan ishlarni bajarish uchun bir-biri bilan oʻzaro taʼsir qiluvchi elementlarni oʻz ichiga oladi [8].

Transport xizmatlari va infratuzilma ham mamlakat iqtisodiy farovonligining asosiy elementlaridan biri boʻlib, shu bilan birga, ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirish, uning tarkibini takomillashtirish, ijtimoiy mehnat taqsimotini takomillashtirishda katta rol oʻynaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada ilmiy-nazariy asos sifatida transportga oid iqtisodiy adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning iqtisodiyotni rivojlantirishda transportning ahamiyatiga oid ilmiy asarlari oʻrganilgan. Mavzuni oʻrganish davomida

adabiyotlar qiyosiy tahlili, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Transportning rivojlanishi inson jamiyatining taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq. Transport (lotin tilidan trans – “orqali” va portare – “tashimoq”)–bu xom-ashyo ishlab chiqarishning muhim vositasi, yuk va yo'lovchilarni tashishni amalga oshiradigan; hamma aloqa yo'llarining to'plami, transport vositalari, aloqa yo'llaridagi texnik qurilma va inshootlar, bir joydan ikkinchi joyga turli maqsadlarda yuk va yo'lovchilarni tashish jarayonini ta'minlaydi. Zamonaviy transport (ijtimoiy – iqtisodiy nuqtai nazardan) butun transport tizimini tashkil qiladi. XX asrda to'liq shakllangan butun dunyo transport tizimi o'z ichiga aloqa yo'llarini (temir va avtomobil magistrali, suv va havo yo'llari, vokzallar va aeroportlar, portlar va stansiyalar), yer usti, havo, suv yo'llarining hamma turlarini qamrab olgan transport vositalari, transport boshqaruvi va korxonalarini olgan. Bu tizim butun aloqa yo'llari bo'ylab yuk va yo'lovchi aylanmasining sifatli va miqdorli ko'rsatkichlariga ega.

Barcha transport turlari xizmat ko'rsatish jarayonining o'zaro aloqadorligi asosida transport majmuasini tashkil etadi. Xar bir transport turiga mos yuk ortish-tushirish maydoni, harakat yo'nalishi, vokzal, aerodrom, stansiya, bekat hamda aloqa vositalari bo'ladi. Temir yo'l, avtomobil yo'li qurishga ko'plab mablag' va vaqt kerak bo'ladi. Quvur transportiga esa minglab tonna quvur sarflanadi. Ammo suv transporti yo'nalishi (trassa)ni oz mablag' evaziga yo'lga qo'yiladi.

Agar mamlakat transport turlari o'rtasidagi mavjud ichki raqobat tahlil qilinsa, yuk tashish hajmi bo'yicha eng yuqori ulush temir yo'l transportiga to'g'ri kelmoqda. Transport xizmatlari bozorida temir yo'l transporti aynan mobilligi, yuqori tezkorlik bilan yuklarni joylashtirishi va yukni “eshikdan eshikkacha”, aniq muddatda yetkazib berishi, tashuv jarayonini tashkil etishning nisbatan soddaligi kabi o'ziga xos xususiyatlari va qisqa masofalarga kichik hajmli yuklarni tashishda ustunlikka ega ekanligini qayd etish mumkin [9]. Ammo, shu bilan birga, temir yo'l transportida yuk tashish hajmi yildan-yilga kamayib borayotganligini ko'rish mumkin.

Transportning iqtisodiy roli avvalam bor uning turli ishlab chiqarishning, korxonalarining ixtisoslashtirilishi va kooperatsiyasining organik qismi bo'lib hisoblanadi, undan tashqari xomashyoning, yonilg'ining va mahsulotning hamma turlarini ishlab chiqarish punktlaridan iste'mol qilish punktlariga yetkazib berish uchun xizmat qiladi.

Transport – bu iqtisodiy rivojlanishdagi hamda xalqaro savdodagi muhim faktordir. Transportning ijtimoiy ahamiyati insonlarning mehnat va maishiy ehtiyojlar bo'yicha tashishni ta'minlashda, transport yordamida ularning jismoniy mehnatini yengillashtirishdan iborat, xususan, katta hajmdagi materiallarni ishlab chiqarish jarayonida va kundalik hayotda joylashtirish kiradi. Transport insonlarga sog'liqni saqlashda yaqin va uzoqdagi sog'lomlashtiruvchi tumanlaridan foydalanish imkoniyatini beradi.

Transport insonlarga davolovchi manbalari mavjud bo'lgan dam olish maskanlaridan territorial foydalanish imkonini beradi, hamda poytaxt va katta shaharlardagi maxsus tibbiyot markazlaridan foydalanish imkonini beradi. Transportning madaniy ahamiyati katta va turlichadir. Bu insonlar orasidagi muloqot va ularning estetik talablarni qondirish usulidir. Transport aholi yashaydigan hududlarga kitoblar, gazetalar, jurnallar va boshqalarni yetkazib berishni amalga oshiradi va shu bilan birga xalqaro ayirboshlashni imkonini beradi.

Madaniyatning yuksalishining kuchli turtkisi bo'lib, xalqning katta qismining olimlar, yozuvchilar, rassomlar, musiqachilar bilan muloqoti, simpoziumlarga, konferensiyalarga, festivallarga, ko'rgazmalarga tashrifi hisoblanadi. Transportning davlat himoyasidagi ahamiyati – bu davlatning himoyalanihidagi eng kuchli omilidir. Bu harbiylarni va qurol-aslahalarni tashish, insonlarning va moddiy texnika resurslarining ta'minoti va evakuatsiyasi.

Transportning asosiy maqsadi – ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligining va aholining tashishdagi talablarini ham hajm, ham sifat jihatidan qondirishdir. Tashishning sifati quyidagilardan aniqlanadi:

- harakat xavfsizligining ta'minlanishi;
- yuklarni va yo'lovchilarni yetkazish bo'yicha muddatlarni qisqartirish;
- tashishlarning doimiyligini ta'minlash;
- qulaylikning darajasini oshirish;
- tashilayotgan yuklarning to'liq himoyalanihini ta'minlash;
- tashishning yuqori tejamkorligiga erishish.

Jahon transport tizimining tarkibi bir xil emas, unda iqtisodiy jihatdan rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning transport tizimlarini ajratish mumkin. Ulardan birinchisiga jahon transport tarmog'i umumiy uzunligining 78 foizi va jahon yuk aylanmasining 74 foizi to'g'ri keladi. Mamlakatning ta'minlanganligini ko'proq darajada tavsiflaydigan transport tarmog'ining "zichligi" ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda 100 km. hududga 50-60 km.ni, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 5-10 km.ni tashkil qiladi. Infratuzilmalar, ularni rivojlantirish esa davlatning ustuvor vazifalaridan biri.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida transportni onlayn bron qilish jadal rivojlanmoqda. Avtotransport vositalarini onlayn bron qilish texnologiyasi operatsiyalarni yanada soddalashtiradi. Shuningdek, transport umumiy turmush darajasini yaxshilaydi va quyidagi qulayliklarni yaratadi

- Tashish: Tashish urush va tinchlik davrida ham ta'minot va jihozlarni talab qiladigan har qanday tadbirning ajralmas qismidir. Transportning o'zi sanoatning ko'p qismini avtomobil ishlab chiqarish, yoqilg'i ishlab chiqarish va yoqilg'i taqsimlash shaklida ishlab chiqaradi.

- Monopoliyani buzish: Tovar taqchilligi odatda savdogarlar guruhining monopoliyasiga olib keladi. Bunday joylar uchun transport ne'matdir, chunki u tovarlar va resurslarni ular ko'p bo'lgan joylardan tashishni osonlashtiradi. Yuk mashinalarini onlayn bron qilishning tobora ortib borayotgani logistika harakati tezligini oshirdi. So'nggi 3 o'n yillikda yuk tashish yuk tashishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

- Kengroq bozor: Yaxshi transport infratuzilmasi kapital, ishchi kuchi va malakali mutaxassislarning harakatchanligini ta'minlaydi.

- Ixtisoslashuv: Transport infratuzilmasi rivojlangan mamlakatda har bir hudud o'ziga xos bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga e'tibor qaratishi mumkin – mavjud tabiiy resurslar tufayli – chunki uzluksiz transport boshqa zarur tovarlarni import qilishni osonlashtiradi.

Quruqlikdagi transportning ikki asosiy turi — temir yo'l va avtomobil transporti shiddat bilan rivojlanib bormoqda. So'nggi yillarda transport sohasida bandlik salohiyati asosan yo'llarga qaratildi. Yuk mashinalarini bron qilish soni tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Transport siyosati borasidagi ma'lumotlarga ko'ra, 2031-32 yillarga borib yuk tashishning 50

foizi avtomobil transportida amalga oshiriladi. So'nggi 20 yil ichida yo'l-transport infratuzilmasi jadal rivojlandi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmatlar ulushining ortib borishi aholi farovonligi darajasi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, transport xizmatlari ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning yetakchi tarmoqlari sifatida ahamiyatlidir. Transport vositalari har qanday jamiyatning davlatchilik hududiy tuzilishining, ichki va tashqi bozorining shakllanishida hamda davlat iqtisodiyotining rivojlanishida shuningdek, mamlakatga katta hajmdagi turistlar oqimini jalb qilishda kuchli hal qiluvchi omil sifatida o'rin tutadi.

So'nggi yillarda yurtimizda transport va transport kommunikatsiyalari sohasini rivojlantirish, tashishlarning yuqori darajadagi xavfsizligini ta'minlash, respublikaning investitsiyaviy jozibadorligi va eksport salohiyatini oshirish, transport kommunikatsiyalarini strategik rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga yo'naltirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, DXShga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "xalqaro tajribani o'rganib, raqobatni olib kirish mumkin bo'lgan monopoliya sohaslariga xususiy sektor uchun yo'l ochish va shu orqali raqobat muhitini shakllantirish, shuningdek, investitsiya jalb etishning samarali vositalaridan biri bo'lgan DXSh mexanizmlarini transport, energetika, yo'l, kommunal, tibbiyot, ta'lim kabi sohalarga keng tatbiq etish kerak" [2].

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) – bu kooperativ kelishuvning bir ko'rinishi bo'lib, bir loyiha doirasida ikki yoki undan ortiq davlat va xususiy sektor vakillarining strategik ahamiyatga ega bo'lgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi sheriklik munosabatlari deyishimiz mumkin. DXSh munosabatlarida davlatning ishtirok etishidan ko'zlangan asosiy maqsad – bu xususiy investitsiyalarni jalb etish, samaradorlikni oshirish va mavjud resurslardan yanada yaxshiroq foydalanish hamda tarmoqlarni rivojlantirishda davlat va xususiy sektorning baravar rolini belgilash, rag'batlantirish va sof raqobat muhitini yaratish orqali sohani isloh qilinishiga erishishdir.

Hukumat siyosati va ulkan sarmoyalar bunga qaratilgan. Ayniqsa, davlat-xususiy sheriklik munosabatlari orqali milliy iqtisodiyotda transport sohasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda va quyidagi loyihalar amalga oshirilishi belgilab olingan:

1. **Toshkent-Andijon pullik avtomobil yo'lini qurish.** Jahon talablariga javob beruvchi yuqori sifatli avtomobil yo'lidan foydalanish imkoniyatini beruvchi Toshkent-Andijon yo'nalishida pullik yo'l qurish loyihasi Jahon banki granti asosida o'rganilmoqda va ayni damda loyiha ustida tender jarayoni amalga oshirilmoqda. Umumiy qiymati 3 mlrd. AQSh dollaridan yuqori bo'lgan bu loyiha shartnomasining amal qilish muddati 49 yil bo'lib, yaratilgan infratuzilma shartnoma muddati tugagandan keyin davlatga topshiriladi. Shuningdek, ushbu loyiha doirasida uzunligi 16 km va qiymati 500,0 mln AQSh dollarlik Qamchiq dovonida yangi pullik avtomobil tunnelini qurish ham ko'zda tutilgan;

2. **Toshkent-Samarqand pullik avtomobil yo'lini qurish.** Umumiy qiymati yaqin 2 mlrd AQSh dollar hamda umumiy uzunligi 295km bo'lgan Toshkent-Samarqand pullik avtomobil yo'lini qurish loyihasi ustida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlikda ish olib borilmoqda.

Transport sohasini rivojlantirishda DXSh mexanizmlaridan foydalanishning xorijiy tajribasini o'rganish va tahlil qilish natijasi shuni ko'rsatadiki, mazkur yo'nalishdagi

hamkorlikni kengaytirish nafaqat transport infratuzilmasini, balki mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Xorijiy mamlakatlarda DXSh asosida amalga oshirilgan hamda ijobiy natijalarga erishilgan loyihalarni tahliliga asoslangan holda, O'zbekistonda transport infratuzilmasini rivojlantirishda DXSh asosida investitsiya loyihalarini amalga oshirish mumkin bo'lgan quyidagi takliflar shakllantirildi:

I. Temir yo'l transporti bo'yicha:

1. Katta miqdordagi investitsiyalarni talab etuvchi loyihalar:

- yuqori tezlikdagi yo'lovchi tashishga mo'ljallangan magistral yo'llarni qurish;
- lokomotiv va vagon parkini yangilash, uni ekspluatatsiya qilish va unga texnik xizmat ko'rsatish;

- umumiy foydalanishdagi elektrlashtirilgan temir yo'l liniyalarini qurish.

2. Katta miqdordagi investitsiyalarni talab etmaydigan loyihalar:

- yuk maydonlari va terminallarni xususiy tadbirkorlarga DXSh asosida berish;
- vokzal xizmatlarini ko'rsatish jarayonini xususiy tadbirkorlarga outsorsing asosida berish;

- temir yo'l stansiyalarida yuk ortish va tushirish faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilot ishini tashkil etish;

- omborxonalar ishlariga refrejeratorli, xususiy tadbirkorlarni jalb qilish;

- asosiy faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan ijtimoiy soha obyektlariga xususiy tadbirkorlarni jalb qilish.

II. Havo yo'llari va Aeroportlar bo'yicha:

- ta'mirlash lozim bo'lgan aeroportlarni modernizatsiya qilish ishlariga xususiy sektorni jalb etish;

- yo'lovchilarni tashishda hamda Aeroportlarda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish ishlariga xususiy tadbirkorlarni jalb qilish.

III. Avtomobil yo'llari bo'yicha.

- yuqori tezlikdagi yo'lovchi tashishga mo'ljallangan magistral yo'llarni DXSh asosida qurish;

- magistral yo'llarda kampinglar, hostellar, ovqatlanadigan va boshqa turistik ko'ngil ochar maskanlar qurish loyihalarini DXSh asosida amalga oshirish hamda bu yo'nalishlarda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish ishlarini xususiy sektorga topshirish;

- hududlardagi ta'mirtalab avtostansiyalarni rekonstruksiya qilish va boshqarish ishlariga xususiy sektorni olib kirish;

- aylanma yo'llar orqali harakatlanishga to'g'ri kelayotgan yo'lovchilarning uzog'ini yaqin qilish maqsadida ko'p qavatli ko'priklar yoki tunellar qurish ishlariga xususiy sektor mablag'larini jalb qilish.


Transport tizimini samarali boshqarishga yondashuvlarning xilma-xilligini qayd etgan holda, bu muammoni o'rganishda tizimli-iyerarxik yondashuvni shakllantirish masalalarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Iyerarxialik qonuniga ko'pa tizimning har bir pog'onasi o'zidan pastda turuvchi pog'ona uchun boshqaruvchi, o'zidan yuqorida turuvchilar uchun boshqariluvchi hisoblanadi. Iyerarxik tuzilgan tizimda tarkibiy va funksional differentsiatsiya mavjuddir, ya'ni har bir pog'ona ma'lum bir faoliyatni yuritishga ixtisoslashadi.

Har qanday tizimning iyerarxik tuzilishiga sabab ularda hajm jihatdan juda ko'p axborotni qabul qilish, qayta ishlash va ishlatish zaruriyatining borligidir. Quyi pog'onadagilar umumlashtirilgan axborotdan foydalanishadi.

Temir yo'l transport tapmog'i yagona tizim, deb tasavvur qilinsa, ushbu tizim faoliyatini yaxshilash yoki boshqacha so'z bilan ta'riflaganda-boshqarish bilan bog'liq muammolarni tizimning tashkil etuvchilari sifatida tasavvur etish mumkin bo'ladi. Mazkur muammolarni muhimlik darajasining tushib ketishi ketma-ketligiga tavsiflab, temir yo'l transport tapmog'i tizimida mavjud muammolar haqida ierarxik tasavvurini shakllantirish mumkin. Bu muammolar nimalardan iborat? Avvalo, temir yo'l transport tizimining mamlakat iqtisodiyoti oldidagi asosiy vazifasidan kelib chiqqan holda, temir yo'l transportida hal etiluvchi ustuvor vazifalarni sanab o'tish maqsadga muvofiqdir:

- iqtisodiyot tarmoqlari va aholining muttasil ravishda o'sib borayotgan sharoitda yuk va yo'lovchilarni tashishga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish;
- temir yo'l transportida yangi yo'llarni qurish ishlarining samaradorligi pastligi;
- taklif etilayotgan xizmatlar narxining iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlar tannarxiga bevosita to'g'ri-proporsional ta'sirini inobatga olgan holda, tashish xarajatlarini kamaytirish choralarini ko'rish.

Yuqorida sanab o'tilgan vazifalarni ierarxik ketma-ketlikda tasvirlab quyidagi rasm ko'rinishiga keltirish mumkin (1-rasmga qarang).



1-rasm. Transport tizimini rivojlantirish vazifalari ierarxiyasi [10]

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda, infratuzilmani boshqarish va tashuvlarni amalga oshirish bo'yicha mazkur tadqiqotda muallif tomonidan aniqlangan muammolar quyidagilardan iborat:

- infratuzilmaning doimiy sarf-xarajatlari ulushi ortishi va ularni qoplash uchun manbalarni topish muammosi yuzaga kelishi;
- iqtisodiyotdagi inqirozli hodisalarga moyillik va infratuzilma xizmatlaridan foydalanish uchun to'lov hamda tariflarning belgilangan daraja va miqdorini pasayishi, bu, o'z navbatida, qo'shimcha davlat subsidiyalarini amalga oshirishni talab etishi mumkin;

– tartibga solish yoʻnalish va obyektlari ortishi munosabati bilan, shu jumladan infratuzilma xizmatlaridan qonuniy foydalanish bilan bogʻliq holda davlat boshqaruvi va taptibga solish tizimini oʻzgartirish zarurati;

– iqtisodiyot va tashuvlar xavfsizligini taʼminlashning oʻzaro texnologik va foydalanish taʼsiri sohasida yuk tashuvchi kompaniyalar va infratuzilma egasining vazifa va masʼuliyatlarini taqsimlash masalalarini ishlab chiqish zarurati;

Tadqiqotchilarning aniqlashicha, transport faoliyatining ayrim koʻrsatkichlari bilan mamlakat YaIM oʻsish surʼatlari oʻrtasida uzviy bogʻliqlik mavjud ekan. Bunday ilmiy izlanishlar orasida rus olimi G.A. Golsning tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Olim oʻz izlanishlarida transport tizimining rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq etish nafaqat mazkur tarmoq rivojlanishi uchun, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari istiqbolli boʻlishi uchun ham muhim ahamiyatga egaligini isbotlamoqchi boʻlgan.

Transport tarmogʻining rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq etishda poydevor mumkin boʻlgan yondashuvlar ichida temir yoʻl tapmogʻining rivojlanish anʼanalarini tadqiq etishda poydevor boʻla oladigan uzoq muddatli barqaror bogʻliqlik koʻrsatkichlarini aniqlab olish birlamchi ahamiyatga egadir.

Rus olimining ilmiy izlanishlarida ilgari surilgan asosiy gʻoya shundan iboratki, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotda roʻy berayotgan har qanday oʻzgarishlar pirovard natijada yetarlicha hisobga olinadigan yuk va yoʻlovchilar tashilishi sifatida transport tizimi zimmasiga tushadi. Gols tomonidan 1985 yildan 2000 yilgacha boʻlgan davrni qamrab oluvchi izlanishlar olib borilgan. Bunda YaIM bilan transport faoliyati koʻrsatkichlari oʻrtasidagi bogʻliqlikni aniqlashga alohida eʼtibor qaratilgan. Uning izlanishlari natijasida YaIM hajmi bilan faqat ikkita koʻrsatkich – yuk tashish hajmi va uning tashish tezligi oʻrtasida mohiyatli bogʻliqlik quyidagi empirik formula orqali aniqlanishi mumkinligi toʻgʻrisida xulosa olingan:

Bunda: **Q** – uzoq masofalarga tashilgan yuk hajmi, t.; **D** – YaIMning mutlaq miqdori, valyuta birligida; **V** – uzoq masofaga yukni tashish tezligi, km/soat.

Albatta, ushbu ifodaning muallifi ham YaIM bilan yuk tashish hajmi va tashish tezligi oʻrtasidagi bunday bogʻliqlik “hali funksional koʻrinishga ega emas” ligini eʼtirof etgan holda, u qoʻshimcha tadqiq qilinishni talab etishni taʼkidlab oʻtgan. Ammo, transport faoliyati koʻrsatkichlarining YaIMga taʼsiri borasida amalga oshirilgan bu izlanishlar transportning mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga egaligini koʻrsatib turibdi.

Ilm ahli namoyondalari va mutaxassislari transportni iqtisodiyotning yuqori qoʻshimcha qiymat hosil qiluvchi tarmoqlari safiga qoʻshishadi. Bunga sabab transportning faoliyati mahsulot tannarxini kamaytirish va uning qadrini oshirishda muhim ahamiyatga egaligidadir. Haqiqatdan ham transport sanoat, qurilish va qishloq xoʻjaligi sohalariga nisbatan jamiyat resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaxshiroq roʻyobga chiqaradi.

Xulosa va takliflar. Transportning iqtisodiyotdagi ahamiyatini ayrim jihatlarini oʻrganib, quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

– barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlash uchun, eng avvalo mamlakatda yalpi ichki mahsulotda xizmatlar ulushini koʻpaytirish lozim. Chunki, xizmatlarning ulushini yuqoriligi aholi farovonligidan darak beradi. Birlamchi ehtiyojlar toʻyingach, ikkilamchi ehtiyojlarga nisbatan talab oshib boradi,

- tranzaksiya sarf-xarajatlari oshishi va tashuv bo'yicha vertikal integratsiyali xizmatlar ishtirokchilarining marjinal daromadini o'sishi natijasida transport tizimining yalpi sarf-xarajatlari oshadi;
- transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish lozim;
- transport tizimining mamlakat ekologik va iqtisodiy xavfsizligiga salbiy ta'sirini bartaraf etish lozim;
- temir yo'l transporti bozori ishtirokchilarining o'zaro ta'siridagi texnologik va iqtisodiy samaradorlik kamayishi natijasida temir yo'llar tarmog'i bo'ylab yuklarni tashish sarf-xarajatlari oshish ro'y beradi. Shuningdek, davlat xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirish orqali, vokzal, aeroportlarni xususiy sheriklar orqali modernizatsiyalash, rivojlantirish iqtisodiyotda xizmatlar ulushini ko'payishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliyasy>, 25.01.2020
3. D. Acemoglu, P. Aghion и F. & Zilibotti, «Distance to frontier, selection and economic growth,» Journal of the European Economic Association, т. 4, № 1, pp. 37-74, 2006
4. P. Aghion, P. Howitt и D. Mayer-Foulkes, «The effect of financial development on convergence: Theory and evidence,» Quarterly Journal of Economics, т. 120, № 1, pp. 173-222, 2005
5. G. G. Das и I. Drine, «Distance from the technology frontier: How could Africa catch-up via socio-institutional factors and human capital?,» Technological Forecasting and Social Change, p. 150, 2020.
6. Зоҳидов А.А. Марказий осиё транспорт тизимини самарали бошқариш механизмини такомиллаштириш. Иқт. фан. док. . дис. Автореф., Тошкент2018.
7. Экономика транспорта: Учебное пособие / Терешина Н.П., Потапова Е.В., Терёшина Н.В., Елишкин И.А. – М.: РУТ (МИИТ), 2018. – 142 с.
8. Лapidус Б.М., Мачерет Д.А. Оценка социально-экономических последствий структурной реформы // Железнодорожный транспорт. 2002. № 12.
9. Ирсбекова М.Н. Маркетинг тамойиллари асосида транспорт хизматлари бозорини оптималлаштириш. Иқт. фан. док. ... дис. Автореф., Тошкент 2017.
10. Ж. С. Файзуллаев Транспорт тизими иқтисодий самарадорлигини оширишнинг назарий асосларини такомиллаштириш “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2021 yil

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 1 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).